



BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.

Ilmiy rahbar: Otajonov Jamshid
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sobirova Dudonaxon.

Far.Du magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy ishlar va pedagogik jarayonni tashkil etish uchun bir qator zamonaviy metodlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *inkluziv ta'lim, refleksiya, adaptatsiya.*

Uzluksiz ta'limning poydevori maktabgacha ta'lim hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ko'lamini kengaytirish, bolalarni muassasaga qamrab olish eng ustuvor vazifa hisoblanmoqda. Bunga maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplariga asosan ish ko'riladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari:

-Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

-har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

-maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;

-maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;

-bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;

-maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;

-ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

-ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqqligi;⁴²

Maktabgacha ta'limning maqsadi –bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni 15-bandi.



ta'lim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti-davlat tomonidan moliyalashtirilgan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot.

inklyuziv ta'lim va tarbiya — bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon;

maktabgacha bo'lgan yosh — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to'rt yoshgacha umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim hisoblanadi.

Dastlab muassaga yangi qabul qilingan har bir tarbiyalanuvchida adaptatsion davr kuzatiladi. Ya'ni muassasaga moslashuv davri. Ushbu davrda muassasa pedagog hodimning roli muhim hisoblanadi. Mustaqil faoliyatni o'ziga notanish bo'lgan joyda, o'zgacha muhitda boshlagan bolalarning har birida moslashuv davri o'z harakteridan kelib chiqqan holda har hil bo'ladi.

Belgilangan mavzuga oid mashg'ulotlar tashkillash bilan birga, turli didaktik o'yinlarni bolalarga moslab tashkillash kerak. Misol uchun bolalar bilan yaqindan tanishish maqsadida

``Men kimman`` o'yini o'ynash.

Tarbiyachi boshlovchi hisoblanib har bir bola bilan tanishib uning qiziqishlarini so'raydi. Zanjir usuli bilan barcha bolalar o'z fikrini bildiradilar. Bolalar shu tariqa birlari bilan tanishadilar.

M: Tarbiyachi: Siz kimsiz? Chiroyli qiz.

Bola: Men kimman: Oydinoyman, juda aqlga boyman. Hasanboyning qiziman. Yoshim 3da.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, o'yin bolaning refleksiv faoliyatini oshirishga hizmat qiluvchi ichki ehtiyoji bo'lib, ularda faollikni oshiradi, ruhiyatni ko'taradi. O'yin bolaning muloqotga kirishuvchanligini oshirib, uning rivojlanishiga olib keladi. Buning oqibatida bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, uning ziyrak, hushyor bo'lishga, zavqlanishga o'rganadi. U olamni bilish, o'rganish harakatida bo'ladi. Intizomli bo'lish, chaqqonlik, tez fikr yuritishga intiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zligini namoyon qilish uning kundalik yashash tarziga aylanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni 15-bandi.
2. Yuldoshev J. va boshqalar. Interfaol ta'lim sifat kafolati. - T.: YUNISEF, 2008.
3. Slastenin V.A., Kashirin V.A. Psixologiya i pedagogika. Dlya vuzov. - M.: «Akademiya», 2008.
4. Bogdanovich O.N. Sovremennyye formy organizatsii uchebno-vospitatelnogo protsessa. - M.: MOZYR, OOOID «Belyy veter», 2009.
5. Mirzaxmatova SH., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim. - T.: «Yangi asr avlodi», 2011.
6. Yuldashev J. G., Pulatova D. Ta'limda o'yinli texnologiyalar samaradorlik omili sifatida. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2014,
7. Султонова Н. А., Ўлмасова К. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ // Интернаука. – 2020. – №. 3-2. – С. 84-86. 7.
8. N.A Sultonova, Ibragimova Sh, D. Xolqoziyeva. TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES // 2020/3 European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences – 2- 3 p.